

## IJTIMOIY DAVLAT KONSTITUTSIYASI

*Xushvaqtova Zuhro Zohidjon qizi*

*Toshkent sh. M. Vosimova nomidagi Yuridik litsey talabasi*

*Xushvaqtov Hasan Zohidjon o'g'li*

*36сонли мактаб о'кувчиси Shahrisabz*

*Xushvaqtov Zohidjon Roziqovich*

*O'zDTSU o'quvvchisi Chirchiq*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy davlat Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati yoritilgan hamda ilmiy tahlil etilgan. Konstitutsianing inson-davlat-jamiyat hayotida tutgan o'rni va uning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Yangi O'zbekistonda o'tkazilgan Konstitutsiyaviy islohatlar sababi, yangilangan Konstitutsiyada qo'llanilgan me'zonlar haqida fikr mulohaza yuritilgan va xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy davlat, g'oya, mafkura, dvigatel, dasturi a'mol, siyrat, qonun, ritm, strategic qomus, qo'llanma, qurol, ta'limot, ijtimoiy hayot, islohot, inauguratsiya, demokratiya, formatsiya, revolyutson, evolyutson, tendentsiya, siyosiy, iroda, strategiya, konfesiya, xalqparvar, renessans, barqaror, kafolat, mezon, siyosiy tizim, siyosiy rejim, rasmiy, kostruktiv, siyosiy jarayon, passiv, siyosiy hokimyat.

### КОНСТИТУЦИЯ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА

**Аннотация.** В данной статье освещается содержание и научный анализ Конституции социального государства. Раскрывается роль Конституции в жизни человека-государства-общества и ее практическое значение. Были рассмотрены причины конституционных реформ, проведенных в новом Узбекистане, критерии, применяемые в обновленной Конституции, и сделаны выводы.

**Ключевые слова:** социальное государство, идея, идеология, двигатель, программа, политика, закон, ритм, стратегический камус, руководство, оружие, доктрина, общественная жизнь, реформа, инаугурация, демократия, формирование, революция, эволюция, тенденция, политика, воля, стратегия, конфессия, народонаселение, возрождение, стабильность, гарантia, критерий, политическая система, политический режим, формальный, конструктивный, политический процесс, пассивный, политическая власть.

### SOCIAL STATE COSTITUTION

**Abstract.** This article covers the content and scientific analysis of the Constitution of the social state. The role of the Constitution in the life of Man-state-society and its practical significance are revealed. The reason for the constitutional reforms in the new Uzbekistan was the reflection on the norms used in the updated constitution, and conclusions were drawn.

**Keywords:** social state, idea, ideology, engine, program organ, urine, law, rhythm, strategic dictionary, manual, weapon, doctrine, social life, reform,

inauguration, democracy, formation, revolution, evolution, trend, political, will, strategy, confession, ringist, renaissance, sustainable, guarantee, criterion, political system, political regime, official, costructive, political process, passive, political power.

Ijtimoiy davlatlarda Konstitutsiya xalq irodasini ifoda etadi va shuning uchun muqaddasdir. Kostitutsiya – inson xulqini boshqaruvchi xarita. O‘tmishning qorong’u tunlarida insoniyat samodagi yulduzlar yordamida yo‘llarini topishgan bo‘lsalar, bugungi kun va kelajakda fuqarolarga Konstitutsiya mayoq bo‘lib xizmat qiladi.

Insonga yurish-turish, kiyinish, xulq-atvori, muomalasi, hatti-harakati, bilim darajasi kabi bir qator xususiyatlari qarab baho berilsa, davlatga uning Konstitutsiyasi orqali baho beriladi.

Konstitutsiya fuqarolarni g’oyaviy tarbiyalovchi, mafkuraviy harakatga keltiruvchi, qurilayotgan jamiyatni mazmun-mohiyatini yaqqol olib beruvchi hamda uning g’alabasini ta’minalashga ishontiruvchi va amaliy harakatga keltiruvchi yo‘riqnomasi.

Konstitutsiya fuqarolarning mushtarakligini namoyon qiluvchi hujjat. Davlatni yuzini namoyish etuvchi dasturi a’mol. Hayotning ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy huquqiy, g’oyaviy-mafkuraviy kabi sohalarini bir butun yaxlitligini ta’minlovchi dvigatel bu Konstitutsiyadir.

Konstitutsiya davlatni siyrati tushirilgan mukammal san’at asari. Davlat ozuqa olib yashaydigan manba. Davlatni tashqi dunyoga tanituvchi asosiy qonun. Davlatni rivojlanish ritmini belgiluvchi strategik qomus.

Kishilarning amaliy faoliyatida tutadigan yo‘li ularning amaldagi Konstitutsiyasiga bog’liq. Konstitutsiya amaliyat uchun qo’llanmadir. Konstitutsiya tabiat, jamiyat va ijtimoiy hayot hodisalarini tushunish uchun yordam beradigan quroldir. Shuningdek fuqarolarni amaliy faoliyatida tutgan yo‘li va harakatlari yo‘nalishini belgilovchi dastur, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi ta’limot. Tabiat va ijtimoiy hayot jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar juda murakkab va ko‘p qirrali ekanligidan, ular to‘g’risidagi tassavurlarimiz va bilimlarimiz o‘zgaruvchan ekanlidan kelib chiqib, Konstitutsiya qotib qolgan, muqim bo‘lishi mumkin emas. Konstitutsiya doimiy ravishda o‘zgarib, rivojlanib, boyib va takomillashib to‘xtovsiz ravishda tabiat, jamiyat va ijtimoiy hayot rivojiga yo‘l berib turadigan muhim o‘zgarishlarni inobatga olgan holda qonunlarni oldingiga nisbatan rivojlantirib, boyitib va chuqurlashtirib boradi.

Yangi O‘zbekistonda Konstitutsiya islohoti haqida birinchi marta Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil noyabr oyida, ikkinchi Prezidentlik muddatiga kirishishidagi inauguratsiya nutqida e’lon qilgan edi [1]. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangilashga asos bo‘ldi.

Shu o‘rinda takidlab o‘tish joizko, Konstitutsiyalar: 1) Qattiq, masalan AQSH Konstitutsiyasi 1787-yil qabul qilingan qariyb uch asr davomida bor yo‘g’i 27 marta

o‘zgartirish kiritilgan [2]; 2) Yumshoq Konstitutsiyalarga bo‘linadi.

Konstitutsiyalarning bunday bo‘linishi davlatlarni tuzumi va tizimi, boshqaruv mexanizmlari, mohiyati, iqsodiyoti va siyosati kabi bir qancha omillarga bog’liq.

O‘zbekiston mustaqillikga erishgandan so‘ng huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishga kirishdi.

Tarixiy jarayonlardan ma’lumki davlatlar bir formatsiyadan ikinchi bir formatsiyaga o‘tish jarayonlarida 2 xil usuldan foydalanishadi: 1) revolyutsion; 2) evolyutsion. Masalan, Rossiya Federatsiyasi revolyutsion yo‘lni tanladi [3].

O‘zbekiston evolyutsion yo‘l bilan yangi davlat qurishga kirishdi [4]. O‘zbekiston davlat tizimi, tuzumini bosqichma-bosqich islohatlar o‘tkazish orqali o‘zgarish yo‘lidan bordi.

Davlat qonunlar, o‘rnatilgan tartiblar orqali boshqariladi. Shuning uchun davlat tizimi, tuzumini o‘zgartirish qonunlarni o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Rivojlanishning evolyutsion yo‘lini tanlagan davlatlar Konstitutsiyasiga tez-tez o‘zgartirish kiritishga to‘g’ri keladi. Chunki, davlat tuzulmalari, mexanizmlari bosqichma-bosqich o‘zgartiriladi. Buning uchun uning huquqiy asoslari qonunchilik ham yangilanib boriladi. Bu birinchi sabab. Ikkinchidan, bugungi globallashuv jarayonlarida fuqarolarimiz yangi tarixiy, siyosiy o‘zgarishlar, yangilanishlar bilan uzviy bog’liq jaryonlarni his etib yashamoqda. Ularga munosib turmush tarzini yaratish ham qonunchilikka o‘zgartirish kiritishni talab etmoqda. Uchinchidan, bugungi kunda g’oyaviy va mafkuraviy kurashlar har qachongidan ham chuqur mazmun va ahamiyat kasb etmoqda deb tahmin qilish mumkin. Bunday sharoitda turli xil siyosiy qarashlar, manfaatlar va mafkuralar o‘rtasidagi kurash tendensiyalarini inobatga olish zarur. Bu qonunchilikda umumiy siyosiy irodani shakllantirishga xizmat qiluvchi normalarni kiritishni taqozo etadi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi [5] va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi [6] hayot suratlarini tezlashtirib yuboradi.

Beshinchidan, O‘zbekistonda bir kishi yoki jamiyat tashkilotlarining fikri davlat tuzilmalarining fikridan ustunroq bo‘ladigan fuqarolik jamiyati qurish [7], davlat mexanizmlari va tuzilmalarini yangidan shakllantirishni taqozo etdi. Vazirlik va idoralar 61 tadan 28 taga qisqartirildi [8].

Oltinchidan, tarkibida 130 dan ziyod konfessiyalarni [9] birlashtirgan O‘zbekistonda siyosiy hayot fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslangan. Bunda turli siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, turli ijtimoiy guruhlar, jamoat tashkilotlari o‘z maqsad, manfaatlari, g’oyalari va siyosiy qarashlari bilan ishtirok etadi.

Yettinchidan, O‘zbekiston ijtimoiy davlat [10] deb e’lon qilinishi, barqaror iqtisodiyot, samarali boshqaruv, xavfsiz davlat va ijtimoiy kafolatni ta’minalash kabi bir qancha obyektiv va subyektiv sabablar Konstitutsiyani yangilashni taqozo etdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirda Konstitutsiyasi [11] Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini o'zida mujassam etadi. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilishni nazarda tutadi.

Konstitutsiya islohotini tom ma'noda O'zbekistonda uchinchi Rennesans poydevoriga qo'yilgan amaliy harakat nishonasi sifatida e'tirof etish mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya quyidagilarga muhim ahamiyat qaratilgan:

- Mamlakatimiz aholisini tez o'sib, katta davlatga aylanayotganiga;
- Samarali, ixcham va xalqchil davlat boshqaruvi joriy qilinishiga;
- Xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratish uchun barqaror iqsodiyotni ta'minlashga;
- Xavfsiz davlat barpo etish masalasiga har qachongidan ham jiddiy e'tibor qaratish davr talabiga aylanganiga;
- Taraqqiy etgan davlat Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida butun jamiyatimizni jipslashtirish kerakligiga;
- O'zbekiston ijtimoiy davlat deb belgilanishiga va bu mustahkam ijtimoiy kafolatlarni talab etishiga;
- O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashni davlatning oliv maqsadiga aylantirish kabilar va boshqa ko'pdan-ko'p muammolar yechimi mustaqil huquqiy poydevorni - O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Konstitutsiyani yangilashda turli xil mezonlar hisobga olingan. Birinchidan, yangilash siyosiy tizim va rejim tartibotlarining mohiyati shunchaki rasmiy holat ifodasi emas, balki demokratik jarayonlar tufayli amaliy (konstruktiv) ko'rinishga ega. Bu o'ta muhim siyosiy jarayon bo'lib, passiv ta'sir kuchiga ega emas. Uning ta'siri albatta siyosiy jarayonlarning xarakteri, demokratik yoki nodemokratik hayot tarzi ko'rinishlari bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyatning siyosiy tizimi, o'rnatilgan tartibotlar, rejim ham qonunchilikni shakllanishiga, uning namoyon bo'lishiga, siyosiy hokimiyatga ega bo'lish, ushlab turish va undan foydalanishga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi demokratik jarayonlardagi tub o'zgarishlar. Uchinchidan, jamiyatning barcha sohalarida taraqqiyotning tez sur'atlarda o'zgarish. To'rtinchidan, qonunchilikni namoyon bo'lishi, shakllanishi, holati va jamiyatga ta'siri. Beshinchidan, siyosiy hokimiyatga ega bo'lish, ushlab turish va undan foydalanish. Oltinchidan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kabilar. Bularning barchasi O'zbekistonning yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasini ijtimoiy davlat Konstitutsiya bo'lishidan dalolat beradi.

**ADABIYOTLAR:**

1. [www.president.uz](http://www.president.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi veb-sayti.
3. [www.senat.uz](http://www.senat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati veb-sayti.
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
6. [www.kun.uz](http://www.kun.uz) – internet sayti.
7. [www.uzlidep.uz](http://www.uzlidep.uz) – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi rasmiy veb-sayti.
8. Abdukarimova R.A. Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat // SCIENTIFIC PROGRESS. Scientific Journal Impact Factor. 4/2023. – P. 203-206.
9. Turdimuratov Y.A., Berdimurodov Z.I. O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirishga oid davlat siyosati // ERUS Educational Research in Universal Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. February, 2023. 144-152.
10. Turdimuratov Y.A. Yangi O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportga oid davlat siyosati // Barqarorolik va yetakchi tadqiqotlar. Journal of Advanced Research and Stability. 05/2023. 575-581.